



TURKIY XALQLAR DOSTONLARIDA “IT” OBRAZI

Qurbonova Gulmera Akbar qizi

Tayanch doktorant,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti.
Asalakbarova97@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar, xususan, o'zbek dostonlarida “it” obrazining qanday o'rin tutgani tahlil qilinadi. “Alpomish,” “Kuntug'mish,” va “Ravshan” dostonlari misolida “it” so'zining turli xil ma'nolarda qo'llanilgani, jumladan, sodiqlik timsoli, salbiy sifatlar ifodasi va xalq urf-odatlar bilan bog'liq kontekstlari o'rganiladi. Shuningdek, islomiy adabiyot va diniy qarashlarning “it” obraziga salbiy ma'no yuklashdagi roli ham ko'rsatib o'tiladi. Maqolada ushbu leksik birlikning qahramonlarning o'zaro munosabatlarini, ijtimoiy qatlamlarni va hattoki shaxsning ichki holatlarini ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alpomish, doston, folklor, it, Kuntug'mish, obraz, ramz, Ravshan, salbiy ma'no, turkiy xalqlar.

KIRISH.

O'zbek xalq og'zaki ijodi, xususan, qahramonlik dostonlari va keyinchalik mumtoz adabiyot namunalari o'zida turli obrazlar orqali xalqning dunyoqarashi, e'tiqodi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Bu obrazlar ichida hayvonot olami vakillari alohida o'rin tutadi. Ulardan biri — it obrazidir. “It” leksik birligi adabiy matnda shunchaki bir jonivorni ifodalab qolmasdan, balki murakkab semantik yukni, ko'pincha qarama-qarshi ma'nolarni o'zida mujassam etadi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek dostonchilik san'atining yorqin namunalari bo'lmish “Alpomish”, “Kuntug'mish” va “Ravshan” dostonlaridan keltirilgan misollar orqali it obrazining doston poetikasidagi funksional o'rni, ramziy ma'nolari hamda uning sadoqat ramzi sifatidagi ijobiy talqini va haqorat/salbiy konnotatsiya tashuvchisi sifatidagi manfiy talqini tahlil etiladi. Bundan tashqari, it obraziga diniy-falsafiy manbalarda, jumladan, Imom G'azzoliy asarlari va Qur'oni Karim tafsirlarida berilgan salbiy baholar hamda bu holatning badiiy adabiyotga ta'siri ko'rib chiqiladi. It obrazi dostonlarda voqealarni sezish (ko'ppak itlar), qiyoslash (Qalmoq elini itga qiyoslash), kamsitish (Yodgorga nisbatan), shuningdek, madaniy marosimlarni ifodalash (o'yin nomi) kabi xilma-xil o'rinlarda namoyon bo'ladi.

“Alpomish” xalq dostonida it obrazining o'rni yaqqol ko'zga tashlanadi. Dostonning Umir shoir Safar o'g'li tomonidan aytilgan variantida Oybarchinga Qalmoq podshosi sovchi qo'yib, shu qizingni menga berasan, bermasang kuningni ko'rsan, deb turganini xabarini Boybo'riga olib kelgan Elomonning ham, Alpomishning o'lik-tirikligini bilib kelgani Qalmoq yurtiga yo'l olgan Qorajonning ikki cho'ponni ko'rib, ularga yaqinlashib kelayotganida ham birinchi bo'lib ko'ppak itlar sezadilar. Shuningdek, Qultoy boboning Ultontoz nomidan sovchi bo'lib kelganida, Barchin shunday javob qaytaradi:

Oybarchin yig'lar dod bilan,

Qayg'uli hasrat bilan,

Siz ham soz bo'lib qolibsiz-da,

Ultontozday it bilan? [Umir shoir Safar o'g'li, 2018: 271]

Eposning Mardonaqul Aviliyoqul o'g'li tomonidan aytilgan variant biroz boshqacha bo'lib, unda Maston kampir va qirq qiz Alpomishga shikoyat qilib, Qalmoq elini itga qiyos etadilar:

Umrin o'tmadi shod bilan,

Biz hamsoya bo'libmiz

Qalmoq gala it bilan.



Bumdan tashqari, Qultoy bobo qozon ostidan to'kilgan guruchlarni yeb yurgan Yodgorga osh ustidagi bir onlik go'shtni uzatganda, yasovullar Yodgorga qarata: “Sag'ir bo'lgansan, itday so'g'onoqlik qilar ekan”,-deya uni kaltaklaydilar.

O'zbek xalqining yana bir mashhur dostoni bo'lmish “Kuntug'mish” dostoninig bir nechta o'rinlarida it obrazi uchraydi:

“Kuntug'mish” dostoni No'g'ay yurtidagi podsho Avliyoyi Qoraxonning o'g'li Kuntug'mish tushida ko'rib sevib qolgan Zangar shahri vazirining qizi Xolbekani topish ilinjida Zangarga yo'l oladi. Bozorda bir kampirni uchratib, undan Xolbekani so'raydi. Kampir esa Kuntug'mishga Xolbeka deb tanishtirish uchun hovuz bo'yida kir yuvib o'tirgan qizi Zamongulni olib kelish uchun borib, unga yaxshi kuyov topganini aytgan holati quyidagicha tasvirlanadi:

“Zamongulning qulog'iga yoqib ketdi. Tog'orani olib urdi, ikki bo'ldi, sobunni otib yubordi, sobunni it oldi.” [Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2011: 22]

Keyinchalik Kuntug'mish Xolbeka bilan uchrashadi. Ammo Xolbekadan rad javobini olgan Zangar podshohi ularni cho'lga surgun qilib yuboradi. Cho'lda bir qancha muddat yashab, ikki o'g'illi bo'lishadi. Bir kuni Azbarxo'ja degan savdogar bilan tanishib qolib, u bilan Qur'onni o'rta qo'yib do'st bo'lishadi. Lekin Azbarxo'ja Xolbekaning husni-jamolini ko'rgach fe'li ayniydi, Kuntug'mishni mast qilib, Xolbekani baangarga olib ketadi. Kuntug'mish o'ziga kelib, Azbarxo'janing karvoni ortidan yo'lga tushadi. Yo'lda ikki o'g'lining birini sohilga qo'yib, birini yo'rgagidan tishlab daryodan o'tkazayotganida, qirg'oqda qolgan bolasini shu atrofda yurgan bo'ri olib keta boshlaydi. Uni ko'rib Kuntug'mish “Voh!” deb, o'g'zidagisini ham suvga tushurib yuborganda, suvdan katta baliq chiqib, bolasini yutib yuboradi. Shunda bolani olib qochgan bo'ri itiga osh pishirib turgan cho'ponlarga yo'liqadi.

“Cho'ponlarning ko'zi tushdi, itni qo'shdi, bo'ri shoshdi, bachchani tashlab qochdi.” [Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2011:99]

Shu bilan, o'nta cho'pon bo'ridan qutqarib qolgan bolani Gurkiboy deb nomlab, uni o'z qarmog'lariga olishadi.

Kuntug'mish yana podshoh bo'lib, yaqinlari bilan topishganda, zindonda yotgan Azbarxo'jani jazosini berishni ikki o'g'larga topshiradi. Mohiboy bilan Gurkiboy Azbarxo'janing tilini kesib olgach, “Azbarxo'ja gapirolmay, ho'kizday bo'kirib-bo'kirib, itday bo'lib o'lib qoldi.” [Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2011:161]

Yuqorida keltirilgan parchalardan ko'rish mumkinki, “Kuntug'mish” dostonida “it”, asosan, hayvon obrazida qo'llangan.

Yana bir taniqli doston “Ravshan” dostoni bo'lib, unda Go'ro'g'lining Vayangandan olib kelgan o'g'li Hasanxon xon Dalli bilan o'g'il ko'rib, otini Ravshan deb qo'yadi. Xunxordan olib kelgan o'g'li Avaxxon esa Gulnor ismli qiz farzandli bo'ladi. Oradan yillar o'tib, Ravshan o'n besh-o'n olti yoshga kirganida, Go'ro'g'li “Avaxxon bilan Hasanxonni quda qilayin, Gulnorjonni Ravshanjonga fотиha qilayin” deya o'zi sovchi bo'lib boradi. Ammo bundan Avaxxonning achchig'i kelib, shunday deydi:

Yigitlar ichida menman o'dag'a,

Bedovga yarashar oltindan to'g'a,

Ravshanga bermayman Gulnorjonni,

Qizim tugul, kuchugimdan sadag'a. [J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova, 2022:11]

Bundan xafa bo'lgan Ravshanga buvisi Yunis pari o'z uzugini beradi. Urukda Shirvon yurtining podshohi Qoraxonning Zulxumor degan qizini ko'rib unga g'oyibona oshiq bo'lib qoladi. Jiyronqush degan otini minib, Zulxumorning yurtiga qarab yo'l oladi. Shirvon elida Ravshan o'g'il tutingan kampirning avval ajdahoday olti o'g'li bo'lib, har biridan Qoraxon podsho qo'rqr edi. Shu kampirning ko'rinishi dostonida quyidagicha tasvirlangan: “Ko'zlari o'tday, manglayi cho'tday, kallası gov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebatday kampir.” [Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2011:198]

Shunday qilib, u Shirvon elida yurganida qari bir ko'saga duch keladi. U Ravshanni yomon so'zlar bilan atab, uni qayerdanligini so'raydi. O'z o'rnida Ravshan ham: “Bu bachchag'ar, uying kuygur, otamni dalada, yo



urush-purushda ko'rsa ko'rgan chiqar, enamni qayerda ko'rgan ekan, bu la'nati it ko'sa. Kel-e, bunga to'g'risini aytgan- da qo'lidan bir ish kelarmi!" [Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2011:237] - deya "it" leksemasidan haqorat va kamsitish ma'nosida foydalanadi.

Ravshan Zulxumor kanizlari bilan turgan bog'ning gullari orasida yashirilib turganida, qizlar uni bexosdan ko'rib qolib, qo'rqib ketadilar va borib Zulxumorga aytadilar. U esa Oqqiz degan kanizini yigit kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so'rab, ko'rmanasini olib kelishga jo'natadi. Ravshan ko'rmanaga tillasi yo'qligi uchun Yunus pari bergan sehrli uzukni Zulxumorga yuboradi. Zulxumor uzukda o'zining ismi va suratini ko'rgach, yigitni huzuriga olib kelishlarini buyuradi. "Qizlar taloto'p bo'lib, o'z vaqtidagi rasm-rusmlari, hangama, kulgilari bilan Ravshanbekni Zulxumor oyimning oldiga olib bordi. Katta qizlar o'rtaga olib, «kampir o'ldi», «it hurullar», «soch siypatar», »qo'l ushlata»rlarini qilib o'tkardi." [Ergash Jumanbulbul o'g'li, 2011:257] Ushbu o'rinda, "it" o'sha zamonning urf-odati nomini ifodalab kelgan.

Keyinchalik u mumtoz adabiyotda ham sadoqat ramzi sifatida e'tirof etilgan. Buni Atoyyiy, Lutfiy va Navoiy asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. It leksik emas, balki shunday ma'noda qo'llanilishi xalq hayoti xususiyatlari va it fiziologiyasi bilan bog'liq. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, badiiy adabiyotda it zoonimining yana bir ma'nosi salbiy konnotatsiyani anglatadi. Bu ma'noning odamlar ongiga singib ketishiga sabab sifatida diniy qarashlar va adabiyotlarda keltirilgan mazmun ko'rsatiladi.

Asarlari muhim manba sifatida e'tirof etilgan Imom G'azzoliy o'zining "Ihyoi ulumiddin" kitobida g'azab, shahvat, gina, hasad, kibr, manmansirash va shunga o'xshash razil sifatlar qopag'on itga qiyoslaydi. [Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy, 2007:77]

Shuningdek, A'rof surasi 175-oyatda Bal'om ibn Bourro qissasida unga Allohning kitobi berilganiga qaramay, nafsning istagiga berilib ketgani sababli itga o'xshatilgani kabi fojir (diniy ko'rsatmalarga amal qilmay, gunoh ishlarni tap tortmay qiladiganlar) [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rohimahulloh] olim ham itga qiyos qilinadi. [Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy, 2007:96]

XULOSA

Tahlil "it" obrazining to'rt funksional rolini aniqladi: 1) Signal/Hushyorlik (Alpomish), 2) Haqorat/Razillik (Kuntug'mish, Ravshan), 3) Diniy-Axloqiy Yovuzlik (G'azzoliy), 4) Sodiq Sevgi Ramzi (Mumtoz adabiyot). Obrazning dostonlardagi salbiy konnotatsiyasi Islomiy manbalardagi axloqiy yovuzlikka qiyoslash an'anasidan kelib chiqqan. Shunga qaramay, u ziddiyatli, ikki qutbli ramz sifatida adabiy tafakkurda mustahkamlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Alpomish". Aytuvchi: Umir shoir Safar o'g'li – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi – 2018. – 368 b. B.271
2. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) [Matn]: darslik / J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova. - Toshkent: "Adast poligraf", 2022.-204 b. B.11
3. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. IHYOU ULUMID-DIN. (Din ilmlarini jonlantirish). Ilm kitobi. Birinchi kitob. Toshkent. «Movarounnahr». 2007. 144b. B.77, 96
4. Kuntug'mish. Ravshan: Dostonlar/Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li; yozib oluvchilar: Muhammadisa Ernazar o'g'li, Hodi Zarif; mas'ul muharrir T. Mirzayev. - T.: «Sharq», 2011. - 368 b. B.22, 99, 161, 198, 237, 257
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rohimahulloh. Savol-javoblar. <https://namozvaqtlari.com/uz/savol-javoblar/1147-fozhir-szining-manosi-nima.html>